

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
XITOIY FILOLOGIYASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: O‘zbek va xitoy tilida qo‘shma gaplarning qiyosiy
tahlili**

**(Mo Yanning Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan “Hong gao
liang” asari asosida)**

**Bajardi: Xitoy filologiyasi kafedrası
4 -bosqich talabasi Rahmatullo Ahmedov**

Ilmiy rahbar: dots. J.Ziyamammedov

Toshkent - 2014

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I.BOB. Xitoy tilida qo'shma gap sintaksisi	6
1.1. Bog'langan qo'shma gaplar	6
1.2. Ergashgan qo'shma gaplar.....	13
1.3.Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.....	26
II.BOB. O'zbek va xitoy tilida ergashgan qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili	
2.1. O'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplar.....	42
2.2. O'zbek va xitoy tilida ergashgan qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili.	51
Xulosa	60
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Malumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan so'ng, ko'pgina sohalarda chet tiliga bo'lgan talab ortib bordi. Jumladan, xitoy tiliga bo'lgan talab ham mamlakatimizning barcha sohalarida sezilmoqda. Shu bois, bugungi kun talabi bizlarning oldimizga xitoy tili grammatikasi, xitoy tili leksikasi, og'zaki nutq bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Zero, xitoy tili xususiyatlarini aynan o'zbek tilida yoritilishi talabalar uchun ancha qulay bo'lib, tilning grammatik xususiyatlarini yanada chuqur egalashga amaliy yordam bo'ladi.

Ma'lum bir til sintaksisini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan qiziqish uyg'otadi. Ba'zi bir lingivistik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ko'pgina nazariy muammolarni talqin etish, xususan, qo'shma gaplarni o'rganishda ham ayrim to'siqlarga duch kelindi. Bunday muammolar ko'pgina tillarga xos bolib, unda asosan, qo'shma gaplarni nisbatan kamroq yoritilganligi bilan belgilanadi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi xitoy tilida qo'shma gaplar ilk bora mahsuz qilinayotganligi va aynan ergashgan qo'shma gaplarni tahlil qilinganligi, deb hisoblaymiz.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Shu kunga qadar ko'pgina xitoylik, shuningdek, rus hamda xorijiy xitoyshunoslar tomonidan ushbu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Buni biz Van li, Шутова А.В., Кондрашевский И.В., Горелов В.И., А.Ф.Котова, Солнцев И.Н kabi xitoyshunoslarning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Ishning maqsadi va vazifasi. BImizni yoritishda biz quydagilarni maqsad qilib oldik:

1. Xozirgi xitoy tilida qo'shma gaplar sintaksisini atroflicha o'rganish ;

2. Qo'shma gaplarning ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganish;

3. Xitoy tilida mavjud bog'langan qo'shma gaplar, bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ergashgan qo'shma gaplar turlari va ularning yasalish usullarini o'rganib chiqish;

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun biz quydagi vazifalarni belgilab oldik, ya'ni:

1. Xitoy tilidagi mavjud qo'shma gaplarni toifalarga, ya'ni bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar, shuningdek, ergashgan qo'shma gaplarni turlarga ajratib, ularning grammatik xususiyatlarini o'rganish;

2. Qo'shma gaplarning qanday usullari bilan yasalishini o'rganib chiqish;

3. O'zbek va xitoy tilidagi ergashgan qo'shma gaplarning turlarini atroflicha ko'rib chiqish va tafovutlarini o'rganish;

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Ushbu mavzuni yoritishda biz, asosan, XXRda chop etilgan xitoy tili darsliklari¹, rus tilidagi manbalardan² hamda o'zbek tilidagi ishlardan³ Горелов “Лексикология китайского языка”, «Грамматика китайского языка», Т.П. Задоев “Основы китайского языка» kabi manbalaridan, shuningdek, Штова А.В. “Синтаксис современного китайского языка” , G'. Abdurahmonov “Qo'shma gap sintaksisi asoslari” deb nomlangan kitobidan hamda internet saytlaridan keng foydalanishga harakat qildik. **Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.** O'zbek va xitoy tilidagi ergashgan qo'shma

¹ 李德律.外国人实用汉语语法.北京语言大学出版社.第 2008 年

游舒.发展汉语.北京语言大学出版社.第 2012 年

付玉萍.Hsk 语法讲练.北京语言大学出版社.第 2008 年

李晓琪.博雅汉语.北京大学出版社.第 2005 年。

² Горелов В.И. Грамматика китайского языка. М., “Просвещение”, 1974.у.

³ Абдурахмонов. Ф.Ўзбек тили грамматикаси.-Т: Ўқутувчи.1996.у.

Abdurahmonov.G'.O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.-T:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti.2008. у.
Asqarov.M. O'zbek tili praktikumi.-T: IQTISOD-MOLIYA.2006.Y.

gaplarning qiyoslash natijasida, o'zbek va xitoy tilidagi ergashgan qo'shma gaplarning o'xshash va farqli tomonlarini ochib berishga harakat qildik.

Ishning predmeti va ob'yekti. O'zbek va xitoy tilida qo'shma gaplar sintaksisi (ergashgan qo'shma gaplar) ishimizning ob'yekti bo'lib, o'zbek va xitoy tili sintaksisida ergashgan qo'shma gaplarni turlarini va tafovutlarini o'rganish ishimizning predmetini belgilaydi.

Ishning ilimiy va amaliy ahamiyati. “O'zbek va xitoy tilida qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili.” deb nomlangan bitiruv malakaviy ishimiz , xitoy tili, xitoy tili grammatikasi bo'yicha o'qitiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, maxsus kurslar uchun ma'ruza matnlari yaratishda amaliy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ishning tarkibi va hajmi . “O'zbek va xitoy tilida qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili” deb nomlangan BMMimiz kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, asosiy qismida o'zbek va xitoy tilida ergashgan qo'shma gaplarning turlari, yasalishi va ular ortasidagi tofovutlat haqida fikr yuritiladi. Birinchi bob “Xitoy tilida qo'shma gap sintaksisi” deb nomlanadi, u uch fasldan iborat bo'lib, unda xitoy tilida bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar haqida ma'lumot beriladi. Ikkinchi bob “ O'zbek va xitoy tilida ergashgan qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili” deb nomlanib, u ikki fasldan iborat bo'lib, birinchi faslda o'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplar haqida ma'lumot berilib, ikkinchi faslda o'zbek va xitoy tilida ergashgan qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili yoritilgan. Shuningdek, malakaviy ish xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, qismlaridan iborat.

I.BOB. Xitoy tilida qo'shma gaplar sintaksisi

Bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordami bilan tuzilib, bir butunlikni tashkil etgan, mazmunana ma'lum bir murakkab fikrni ifodalovchi gaplar birikmasiga qo'shma gap deyiladi.

Bo'glovchi termini ostida morfologik tushunchadagi bog'lovchigina tushinilmay, qo'shma gap ostidagi sodda gaplarni biriktiruvchi har qanday vositalar yordamchi so'zlar, grammatik va leksik vositalarni ham tushunamiz.

Qo'shma gaplarning asosiy belgilari

- Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-birini yoki biri ikkinchisini mazmunan izohlaydi va har ikkisi birikib umumiy maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Qo'shning tinch- sen tinch.*
- Qo'shma gap tarkibidagi gaplar grammatik tomondan ham bir-birlariga bog'liq bo'ladi.
- Qo'shma gap tarkibidagi gaplarning ohang jihatdan ham o'ziga xos hususiyati bor. Qo'shma gap tarkibidagi bir gapning ohangi va har ikki gap orasidagi to'xtam ikkinchi bir gapni talab etadi; ohang qo'shma gap oxirida tugatiladi.

Demak, qo'shma gapni tashkil etgan gaplar mazmuni, grammatik qurilishi va ohangi bilan alohida qo'lanuvchi sodda gaplardan farq qiladi. Shuning uchun ham har qanday sodda gapni biriktirib, qo'shma gap hosil qilish mumkin emas.

Xitoy tilida qo'shma gaplarni ma'lum mazmun munosabatlarni ifodalashi, grammatik belgilar, tuzilishi va ohangiga, tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro semantik, grammatik belgilari va bog'lanish texnikalariga ko'ra qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi.

1. Bog'langan qo'shma gaplar 并列复句⁴bìngliè fùjù

⁴李德律.外国人实用汉语语法.北京语言大学出版社.第2008年.第587页

2. Ergashgan qo'shma gaplar 偏正复句 piānzhèng fùjù

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar 无连接词复句 wúlián jiēcífùjù

Bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplarning o'zaro semantik aloqasida bog'lanish texnikasida va intonatsiyasida o'ziga xoslik bo'ladi.

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar o'ziga xos semantik, grammatik va intonatsion hususiyatlarga egadir; anashu hususiyatlari bilan ular mustaqil qo'llanuvchi sodda gaplardan ajralib turadi, ular umumiy fikrni ifodalaydi.

她会英语，她会法语，她也会日语。Tā huì yīngyǔ, tā huì fǎyǔ, tā yě huì rìyǔ.

U ingliz tilini biladi, u fransuz tilini biladi, u yapon tilini biladi. Ushbu gapning har bir bo'lagida ega mavjud, har bir gapning egasi 她-u.

这本小说没意思，我不想看了。Zhè běn xiǎoshuō méiyìsi, wǒ bùxiǎng kànle.

Bu roman qiziq emas, meni o'qigim kelmayapti. Mazkur gap tarkibidagi har bir gapning har bir bo'lagida ega bo'lib, biroq gap mazmunan bir xil emas.

他今天很忙，（他）不能陪你出去。Tā jīntiān hěn máng, tā bùnéng péi nǐ chūqù

U bugun juda band, seni kuzatib bora olmaydi. Keltirilgan ushbu har ikki qismida faqatgina bitta ega bo'lib, 他-u dir.

要积极发展农业，以提高农民的生活水平⁵。Yào jījí fāzhǎn nóngyè, yǐ tígāo nóngmínde shēnghuó shuǐpíng.

Qishloq ahlining turmush tarzini ko'tarish uchun, qishloq xo'jaligini faol rivojlantirish kerak. Mazkur gapda ega mavjud emas.

⁵王汉生。现代汉语实用教程。中国科学技术出版社。2009年、242-页。

Demak, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar, umumiy fikrni ifodalashi bilan birga bir turdagi bir hil fikrni ham yoki bir sodda gapdan anglashilgan mazmun ikkinchisiga bog'liq bo'ladi, undan kelib chiqadi, uning ma'nosini to'ldiradi, izohlaydi.

Yana bir nechta misollarga murojaat qilamiz:

他又喜欢踢足球，又喜欢听音乐。 Tā yòu xǐhuan tī zúqiú, yòu xǐhuan tīng yīnyuè. U ham futbolni yaxshi ko'radi, ham musiqa tinglashni yaxshi ko'radi.

要是你有兴趣，我们就去参观博物馆。 Yào shì nǐ yǒu xìngqù, wǒmen jiù qù cānguān bówùguǎn. Agarda sen qiziqadigan bo'lsang biz muzeyni aylangani boramiz.

他今天有事，所以不能来了。 Tā jīntiān yǒushì, suǒyǐ bùnéng lái. Bugun uning ishi bor shuning uchun u kela olmaydi.

虽然天气不太好，他们也要去游览长城。 Suīrán tiānqì bú tài hǎo, tāmen yě yào qù yóulǎn chángchéng. Ob-havo yaxshi bo'lmasa ham, ular Buyuk Xitoy Devorini ziyorat qilgani borishdi.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar grammatik tomondan ham o'zaro boglangan bo'ladi. Bu xil sodda gap gap kesimlarining bir xil, bir-biriga mos formada bo'lishi, ularda umumiy ikkinchi darajali bo'laklarni bo'lishi, sodda gap tarkibidagi mazmuni izohlanayotgan bo'laklarning mavjudligi, kesimlar bir xil bo'lganda, ularni bir o'rinda umumlashtirgan holda berilishi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni grammatik va tuzilish tomonidan bir-biriga yaxlit holda bog'lab qo'yadi.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar intonatsion jihatdan ham o'ziga xos hususiyatga egadir. Qo'shma gap tarkibida bo'lgan bir sodda gapning intonatsiyasi ikkinchi bir gapni talab etadi, intonatsion tugallik gapning oxirida bo'ladi.

Demak, qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar o'zlarining semantik, grammatik munosabatlari va intonatsiyalari bilan alohida qo'lanuvchi mustaqil

sodda gaplardan farq qiladi, shuning uchun ham har qanday sodda gaplarni biriktirib qo'shma gap hosil qilish mumkin emas.

1.1 Bog'langan qo'shma gaplar

Teng bog'lovchilar yordami bilan tuzilib mazmunan va grammatik tomondan bir butunlikni tashkil etgan gaplar birikmasiga bog'langan qo'shma gap deyiladi⁶.

Bog'langan qo'shma gapni boshqa qo'shma gap qurilmalaridan farqlab turuvchi asosiy grammatik belgi ularni tashkil etgan qismlarni bir-biriga bog'lovchi teng bog'lovchilar va yuklamalardir⁷

Har bir bog'lovchi umumiy bir fikrni ifodalagan sodda gaplarni bir-biri bilan bog'lashdan tashqari, shu sodda gaplar orasidagi semantik munosabatlarni reallashtirish uchun xizmat qiladi

Bog'langan qo'shma gapni tuzishda faqat bog'lovchilar, yuklamalar va ayrim fe'l formalari xizmat qilib qolmay, gap tarkibidagi ayrim so'zlarni mazmuni, intonatsiyaning va gap qurilishining ham roli kattadir.

Xitoy tilida bog'langan qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplarning o'zaro aloqasi orqali quyidagi ma'no munosabatlari ifodalanadi:

Xitoy tilida bog'larga qo'shma gaplarning to'rtta turi mavjud

- 联合关系 liánhé guānxì birlashtiruvchi (umumlashtiruvchi) munosabatdagi teng bog'lovchilar

⁶В.И.Горелов. Грамматика китайского языка. М., "Просвещение", 1974 г., 161 стр.

⁷ Абдурахмонов. Ф.Ўзбек тили грамматикаси.-Т: Ўқутувчи.1996.163.бет

- 承接关系 chéngjiē guānxì davomiy munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplar
- 递进关系 dìjìn guānxì progressiv munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplar
- 选择关系 xuǎnzé guānxì tanlov munosabatdagi bog'langan qo'shma gaplar.

Quyida bir qancha misollarni ko'rib chiqamiz:

联合关系 liánhé guānxì birlashtiruvchi (umumlashtiruvchi) munosabatidagi teng bog'langan qo'shma gaplarda odatda, gapning mazmuni ten bog'lovchilar bilan bog'lanib, har ikkala gapning o'rni almasha ham , mazmuniga ta'sir etmaydi⁸.

他一边弹琴，一边唱。 Tā yìbiān tánqín, yìbiān chàng.

U ham pianina chalyapti, ham qo'shiq aytyapti.

他一边唱，一边弹琴。 Tā yìbiānchàng, yìbiān tán qín.

U ham qo'shiq aytyapti, ham pianina chalyapti.

承接关系 chéngjiē guānxì davomiy munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplar ish-harakat ketma-ket sodir etilishi yoki bir harakatdan so'ng ikkinchi harakat boshlanganligini ifodalashi mumkin:

他一高兴，就唱起来了。 Tā yī gāoxìng , jiù chàngqǐ láile. U xursand bo'liboq, darhol kuylay boshladi.

递进关系 dìjìnguānxì progressiv munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplarda ko'zda tutilgan mazmun nafaqat birlamchi, balki undan ortiq, undanda ko'p va ustuvor ekanligini ifodalaydi. Bu turdagi teng bog'larga qo'shma gaplarning har ikki qismi o'zaro o'rin almashtirilgan holda ham gapning mazmuni o'zgarmaydi:

⁸李德律.外国人实用汉语语法.-北京:“北京语言大学出版社”.2008年.-页.591.

她老人家不仅是英雄，也是个性解放的先驱。

他不但会开，而且会修车。 Tā búdàn huì kāi, érqiě huì xiūchē.

U nafaqat mashina haydashni biladi, undan tashqari ta'mirlashni ham biladi

他不但会修车，而且会开车。 Tā búdàn huì xiūchē, érqiě huì kāichē.

U *nafaqat* mashina ta'mirlashni biladi, *balki (undan tashqari)* mashina haydashni ham biladi.

选择关系 xuǎnzé guānxì alternativ (tanlov) munosabatidagi teng bog'langan qo'shma gaplarda tanlov imkonini ifodolovchi mazmun bo'ladi, ushbu turdagi qo'shm gapning har ikki qismi o'zaro o'rin almashtirganda ham mazmun o'zgarmaydi:

或者是红的，或者是蓝的，都可以。 Huòzhě shihóngde, huòzhě shilánde, dōukěyǐ.

Xoh qizil bo'lsin, xoh ko'k bo'lsin barchasi bo'laveradi.

或者是蓝的，或者是红的，都可以。 Huòzhě shilánde, huòzhě shihóngde, dōu kěyǐ.

Xoh ko'k bo'lsin, xoh qizil bo'lsin barchasi bo'laveradi.

Xitoy tilida teng bog'langan qo'shma gaplarning ma'no munosabatiga ko'ra bog'lanish asosan, teng bog'lovchilar yoki teng munosabatini ifodolovchi konstruksiyalar yordamida ifodalanadi. Quyida teng bog'langan qo'shma gaplarda ifodalanadigan konstruksiyalar keltirilgan:

并列复句 Teng bog'langan qo'shma gaplar	联合关系 liánhéguānxì birlashtiruvchi (umumlashtiruvchi)	又.....，又..... 既.....，又.....
		一边.....，一边.....

	munosabatidagi teng bog'langan qo'shma gaplar	一面.....，一面.....
		一方面.....，一方面.....
		不是.....，而是.....
承接关系 chéngjiēguānxì davomiy munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplar		(先).....然后(再,接着)
	,就.....
		一.....,就...
递进关系 dijìnguānxì progressiv munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplar	,还..... 尚且.....,何况..... 不但不.....,反而还.....,甚至.....
		不但(不仅/不只/不光).....,而且 (还,也,又)
选择关系 xuǎnzéguānxì alternativ (tanlov) munosabatidagi teng bog'langan		(是).....,还是..... 可能.....,可能..... 或许.....,或许.....

	qo'shma gaplar	或者.....，或者..... 要么.....，要么.....
		不是.....，就是..... 也许.....，也许..... 要不.....，要不.....

1.2. Ergashgan qo'shma gaplar

Tarkibidagi predikativ birliklar (sodda gaplar) bosh va ergash holatida bo'lib, ya'ni bosh va ergash gapdan tuzilib, ergashtiruvchi bog'lovchilar, bir qancha fe'l shakllari, yuklama va ko'makchilar, nisbiy so'zlar va tobelanish ohangi yordamida

birikib, biri ikkinchisini aniqlash, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradigan qo'shma gap turi **偏正复句 piānzhèng fùjù**, ya'ni ergashgan qo'shma gap deyiladi⁹.

Tobelovchi bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordami bilan aloqaga kirib, bir gapni ikkinchisiga mazmunan tobe bo'lib, uni izohlab kelgan gaplar birikmasidan tashkil topgan qo'shma gaplarning turiga ergash gapli qo'shma gap deyiladi.

不管是什么颜色，我都喜欢。Bù guǎn shìshénme yánsè, wǒ dōu xǐhuan.

Qanday rangda bo'lsa ham, men hammasini yoqtiraman.

因为他来电话了，所以咱们得等他。Yīnwéi tā lái diànhuàle, suǒyǐ zánmen déi děng tā.

U telefon qilgani sababli, biz uni kutishimiz kerak.

虽然衣服样子不少，但是没有他要的那种。Suīrán yī fuyàngzǐbùshǎo, dànshìméiyǒu tā yào de nàzhǒng.

Kiyimlarning fasoni ko'p bolsa ham, lekin u xohlagani yo'q.

Ergashgan qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar xarakteriga ko'ra ikki xil bo'ladi: bosh gapga ergashib, tobe bo'lib, ikkinchi bir gapni izohlab, to'ldirib keluvchi gaplar ergashgan gaplar deyiladi. Mazmuni izohlanyatgan boshqaruvchi gap bosh gap deyiladi. Yuqoridagi misollarni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi gapda 不管是什么颜色—*bù guǎn shìshénme yánsè* Qanday rang bo'lishidan qat'iy nazar ergashgan gap bo'lib, 我都喜欢 —*wǒ dōu xǐhuan* menga barchasi yoqadi — bosh gapdir.

⁹李德律.外国人实用汉语语法.-北京:“北京语言大学出版社”.2008年.-页.554.

Xitoy tilida anglangan ma'nolari, shakllanishlari va bosh gapga bog'lanish usullariga ko'ra, ergash gaplarning turlari quyidagilar:

- **转折关系** **zhuan zhé guānxi** to'siqsiz munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- **因果关系** **yīnguǒ guānxi** sabab munosabatdagi ergash gapli qo'shma gaplar
- **条件关系** **tiáojiàn guānxi** shart-sharoit munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar *uapm*
- **目的关系** **mùdì guānxi** maqsad munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- **取舍关系** **qǔshě guānxi** qiyoslash munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- **假设关系** **jiǎ shè guān xi** shart munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- **让步关系** **ràngbù guānxi** rozilikni bildiruvchi munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar.

Quyida biz ergash gaplarning turlarini alohida- alohida ko'rib chiqamiz

Ergash gaplarning shunday turlari borki, ulardan bosh gapdagi mazmun ergash gapdagi ifodalangan xabarga, faktga zid bo'ladi. Ergash gapdagi harakat-holat, belgi-hususiyat bosh gapdagi ish-harakat, holat, maqsadning yuzaga chiqishiga monelik qilsa ham, bosh gapdagi mazmun vujudga kelaveradi. Yoki ergash gapda ifodalangan mazmunga nomuvofiq ravishda bosh gapda biror harakat ro'y beradi. Bu turdagi gaplar to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar deyiladi.

Xitoy tilida to'siqsiz ergash gaplar asosan

- 尽管.....，但是(但，然而，只是，不过，倒，竟然) –.....*bo'lsada, biroq, lekin, aksincha, baribir;*
- 虽然(虽).....，但是(可是，不过，却，还是) ...*bo'lishiga qaramay, lekin, baribir, aksincha;*
-，反而/反倒 –, *aksincha;*
-, *不过，只是，就是，却... -lekin, aksincha, biroq*
-, *其实..... aslida*
- *固然....., 但是，可是，不过.....rostdan ham, aslida,sa ham, - lekin, biroq, aksincha*
-，却 –, *aksincha* kabi turg'un konstruksiyalar orqali ifodalanadi.

Masalan:

虽然那两个国家之间的战争已经结束了，**可是**战争留下的问题还没完全解决。 *Ikki davlat o'rtasidagi urush harakatlari allaqachon tugagan bo'lsa ham, urush qoldirgan muammolar hali ham to'liq hal etilmagan.*

虽然世界人民都热爱和平，**可是**战争还经常发生。 *Dunyo xalqlari tinchlikni sevsalarda, biroq tez-tez urush chiqib turadi.*

虽然每个人都能唱歌，**不过**唱得特别好的人比较少。 *Har kim qo'shiq bilsada, biroq yaxshi qo'shiq aytadiganlar nisbatan kam.*

尽管已经到下班的时间了，但是他还在工作。 *Ish vaqti tugagan bo'lsada, lekin u hali ham ishda..*

尽管他感冒了，但是还陪我们去公园了。 *U shamollagan bo'lsa ham, lekin baribir bog'ga borishga bizga hamrohlik qildi.*

大家尽管觉得路比较远，但是都去了¹⁰。 *Hamma yo'lni biroz uzoq deb o'ylasa ham, lekin baribir hamma bordi.*

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gapda anglashilgan mazmun qanday sabablar asosida ro'y berishi yoki ro'y bermasligini ko'rsatuvchi ergash gaplarga sabab ergash gaplar deyiladi.

Xitoy tilida sabab ergash gapli qo'shma gaplar asosan

- 因为(因).....，所以(便) – chunki, *sababli,- shuning uchun*
- 由于.....，..... – *...ga ko'ra, sababli*
-，因此..... – *shuning uchun, shu sababli*
- 之所以.....，是因为..... *shuning uchun, - chunki*
- 所以.....，因为..... *shuning uchun, - chunki*
-, 是因为..... *chunki*
- 既然.....，就..... *modomiki, -unda /u holda*

kabi bog'lovchilar bilan yasalgan turg'un konstruksiyalar orqali bosh gapga bog'lanadi.

¹⁰李德律.外国人实用汉语语法.北京语言大学出版社.2007年,639页。

Bu turdagi sabab ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi. Ergash va bosh gapni biriktiruvchi bog'lovchilar birinchi va ikkinchi gapning boshida keladi, bosh gap tarkibida keladigan bog'lovchilar gapning boshida qo'llaniladi. Masalan:

老王因为身体不太好，所以不能来看你。Chunki Lao VangYinning sog'lig'i yaxshi emas, shuning uchun seni ko'rgani kela olmadi.

因为节日快到了，所以很多人忙着买礼物。Bayram yaqinlashib qolganligi sababli, hamma sovg'a sotib olish bilan band edi..

由于天气不好，飞机没有按时到达。Ob-havo yaxshi bo'lmaganligi sababli samolyot o'z vaqtida qo'na olmadi.

由于我们没经验，这次试验失败了。Tajribamiz bo'lmaganligi sababli, bu safargi tekshiruvlarimiz muvaffaqiyatsiz b'ldi

我们是老朋友了，因此谈话比较随便。Biz yaqin do'stlarmiz, shuning uchun bemalol suhbatlashaveramiz.

既然大家都同意这个设计，咱们就通过了。Modomiki hamma shu loyihaga rozi ekan, demak biz uni qabul qilamiz.

你既然一定要走，我就不留你了¹¹。Modomiki sen aniq ketadigan bo'lsang, unda men seni olib qololmayman.

Sabab ergash gapning bu turi ko'proq yozma nutqga oiddir. Ergash va bosh gaplar tarkibi keng, murakkab bo'lgan sodda gaplardan tashkil topganligi sababli, ular orasida sezilarli pauza beriladi.

Shart- sharoit ergash gapli qo'shma gaplar

¹¹外国人实用汉语语法。北京语言大学出版社。2007年，636页。

Bosh gapdan anglashilgan voqea, hodisa, belgi-hususiyatni qanday shart-sharoitda ro'y berishi yoki ro'y bermasligini ko'rsatadi.

Shart-sharoit ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi voqea, hodisa, belgi-hususiyatning yuzaga chiqishi uchun ma'lum shart-sharoitni ko'rsatganda, bosh gapga quyidagi yo'llar bilan bog'lanadi:

- 不管.....，都（也）-
- 不论.....，都（也）- *nima bo'lishidan qat'iy nazar,*
nima bo'lganda ham
- 无论.....，都（也）-
- 只要.....，就..... - *faqatgina....., unda...*
- 只有.....，才..... - *faqat ...bo'lsagina, unda...*
- 除非.....，才.....-*agarda/ mabodo....., shundagina*
- 除非.....，否则/不然..... sababli, agar bunday bo'lmaganda

不管有多少困难，我们都能克服。Qiyinchilik qancha ko'p bo'lishidan qat'iy nazar, biz baribir yengib o'ta olamiz.

不论怎么忙，他每天都要看一小时报纸。Qanchalik band bo'lishidan qat'iy nazar, u har kuni baribir bir soat gazeta o'qiydi.

只要你来，我就高兴。Faqat sen kelsang bo'ldi, men xursand bo'laman.

只有刻苦钻研，才能掌握一门外语。Faqt chuqur matonatni boshdan kechirgandan so'ng, o'shandagina bitta chet tilini egallashing mumkin.

鱼一离开水，就会死。 Baliq suvni tark etishi bilanoq, darhol nobud bo'lishi mumkin.

太阳一出来，天气就暖和¹²。 Quyosh chiqishi bilanoq, kun darhol ishib ketadi.

Shart gap bosh gapdan anglashilgan voqea, hodisa, belgi-hususiyyatning yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan real shartni, xohish-istakni ifodalab keladi.

Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gapdan anglashilgan mazmunning nima uchun, nima maqsadda ro'y berishini yoki ro'y bermasligini ko'rsatuvchi ergash gaplarga maqsad ergash gaplar deyiladi.

Maqsad ergash gap bosh gapning yolg'iz kesimidan yoki guruhidan anglashilgan harakat, holat, begi-hususiyyat nima maqsadda ro'y berishini yoki ro'y bermasligini anglatadi.

Maqsad ergash gap quydagi yo'llar bilan bosh gapga bog'lanadi:

- | | | |
|---------------------------|---|--------------------------------|
| ➤ , 好 ¹³ | } |,deb/maqsadida/uchun/.... |
| ➤ , 为的是..... | | |
| ➤ 为了..... , 为了..... | | uchun....., uchun..... |
| ➤ , 省得/免得/以免 | |, deb/maqsadida..... |
| ➤ , 以便..... | |,deb/maqsadida..... |

¹²李德律.外国人实用汉语语法.北京语言大学出版社.2007年,638页。

¹³好 сифат сўз туркумига мансуб сўз бўлиб, мақсад эргаш гапларда боғловчи вазифасида ҳам қўлланилади.

➤ , 以..... , *deb/maqsadida*.....

你要坚持治病，好早一点恢复健康。Sen ertaroq tuzalishing uchun, muolajalarga qat'iy amal qilishing zarur.

告诉我他在哪儿，我好去找他。Men uni qidirib topishim uchun, uni qayerdaligini menga ayt.

他正在积极准备，为的是顺利的通过毕业考试。Bitiruv malakaviy ishini muvaffaqiyatli topshirish uchun, u ayni payitda faol tayorgarlik ko'ryapti.

Qiyoslash mazmunidagi ergashgan qo'shma gap

Ergash gapli qo'shma gaplarning shunday turlari borki, ularda ergash gapdagi mazmunga qiyoslash orqali bosh gapning mazmuni ochiladi. Bunday holda ergash gaplar, bosh gapdan anglashilgan harakat, holat, belgi-hususiyatlarni qiyoslash, o'xshatish orqali ifodalashi mumkin.

Qiyoslash mazmunidagi ergashgan qo'shma gaplarda bosh gapning mazmuni boshqa bir voqea, hodisaga qiyoslanishi yoki ular bosh gapdan anglashilgan harakat, holatning darajasini izohlashi mumkin.

Xitoy tilida qiyoslash mazmunidagi ergashga qo'shma gaplar quydagi turg'un konstruksiyalar vositasida bog'lanadi:

❖ 宁可..... , 也..... *dan ko'ra, nimanidir afzal...*

.....,.... *sa ham, baribir*.....

❖ 与其..... , 不如.....— *dan ko'ra ,yaxshi*

masalan:

她宁可饿着肚子，也不愿意麻烦别人。

U qorni och qolsa ham, baribir boshqa odamni bezota qilgisi kelmaydi.

我们与其在这儿等他，不如去他家找他。

Biz uni buyerda kutganimizdan ko'ra, uyiga borib qidirganimiz yaxshiroq.

Shart ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelish shartini bildiradi. Bu qo'shma gap asosan quydagi bog'lovchilar yordamida shart ergash gapli qo'shma gaplarni tashkil qiladi.

- 幸亏.....，不然/否则..... *Yaxshiyamki..., aks holda/ unday bo'lmaganda*
- 要不是.....，.....就..... *agar bunday bo'lmasa...,*
-，否则..... *aks holda*
- 没有.....，就没有/不会..... *yo'q bo'lsa..., yo'q/ bo'lmaydi.....*
- 要是.....，就..... *agar*
- 如果/假若/若要/若/倘若.....，就/那么/那就..... *agar..., unda....*
- 假使.....，就..... *agar.....,*

要是你不愿意坐火车，就坐船。 *Agar sen poyezda ketishni xolamasang, unda qayiqda ket.*

让步关系 (Shart ergash gapli qo'shma gaplar)

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelishidagi shartni bildiradi. Bu gap turi 外国人实用汉语语法 kitobida shart

ergash gap (假设关系) qo'shma gap va 让步关系 gap turlari alohida ajratib o'tilgan, lekin bizning o'zbek tili grammatikasida bu ikkala gap turi ham shart ergash gapli qo'shma gap turigakiradi.

❖ 就是。 。 。 。 。 ， 也。 。 。 。 *sa ham , baribir*

❖ 即使/哪怕。 。 。 ， 也。 。 。 。 *sa ham , baribir*

Quyida bu gap turiga misollarni ko'rib chiqamiz.

我就是知道这个情况，也不会改变自己的看法

Men bu holatni bilsam ham , baribir o'z fikrimni o'zgartirmayman.

即使你不愿意参加，也没关系。

Sen qatnashishni xohlamasang ham , hech qanaqa muammo yo'q

我们即使获得冠军，也要坚持练习。

Biz g'olibbo'lsak ham, baribir mashq qilishda davom etamiz.

Shunday qilib xitoy tilida ergashgan qo'shma gaplarning yetti xil turi mavjud bo'lib bular; 转折关系，因果关系，条件关系，假设关系，让步关系，目的关系，取舍关系. Bu gap turlarining har biri o'zining bog'lovchilariga egadir . Quyida bu gap turlarining bog'lovchilarini ko'rishingiz mumkin.

偏正复句 Ergashgan qo'shma gaplar	转折关系	虽然 (虽) 。 。 但是 (还是/却/而)
	To'siqsiz ergash gaplar	<p>尽管。 。 ， 但是 (但/然而/只是 不过/倒/竟然)</p> <p>。 。 ， 反而/反倒。 。 。 。 。</p> <p>。 。 ， 却/不过/只是/就是。 。 。 。</p> <p>。 。 ， 其实。 。 。 。 。 。 。 。</p> <p>固然。 。 ， 但是 ， 可是 ， 不过。 。 。</p>
	因果 关系	因为。 。 。 ， 所以。 。 。 。 。
	Sabab ergash gaplar	<p>由于。 。 。 。 ， 。 。 。 。 。 。</p> <p>由于。 。 。 。 。 ， 所以 ， 因此。 。</p> <p>既然。 。 。 ， 就/只好/只有/一定。 。</p> <p>之所以。 。 。 ， 是因为。 。 。 。 。</p> <p>由于。 。 。 。 ， 就。 。 。 。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 ， 是由于。 。 。 。</p>

		<p>。 。 。 。 。 ， 只好。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 可见。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 以至。 。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 以致。 。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 不免。 。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 难免。 。 。 。 。</p>
	<p>条件复句</p> <p>Shart- sharoit ergash gaplar</p>	<p>不管。 。 ， 就 (也)。 。 。 。</p> <p>不论/不论。 。 ， 都 (也)。 。</p> <p>只要。 。 。 。 ， 就。 。 。 。 。</p> <p>只有。 。 。 ， 才/能。 。 。 。</p> <p>除非。 。 。 ， 才。 。 。 。 。</p> <p>一。 。 。 。 。 ， 就。 。 。 。 。</p> <p>除非。 。 ， 否则/不然。 。 。 。</p>
	<p>让 步 关 系</p> <p>to'siqsiz ergash</p>	<p>就是。 。 ， 也。 。 。 。 。</p>

	<p>gaplar(o'zbek tilida to'siqsiz ergash gaplar turkumiga kiradi)</p>	<p>即使/哪怕。 。 。 ， 也。 。 。 。</p>
	<p>目的关系 Maqsad ergash gaplar</p>	<p>。 。 。 。 。 ， 好。 。 。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 为的是。 。 。 。</p> <p>为了。 。 。 ， 为了。 。 。 。 。</p> <p>。 。， 省得/免得/以免。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 以便。 。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 。 ， 以。 。 。 。 。</p>
	<p>假设关系 Shart ergash gaplar</p>	<p>幸亏。 。 ， 不然/否则。 。 。 。</p> <p>要不是。 ， 。 。 就。 。 。 。 。</p> <p>。 。 。 。 ， 否则。 。 。 。 。</p> <p>没有。 。 ， 就没有/不会。 。 。</p> <p>要是。 。 。 ， 就。 。 。 。 。</p> <p>如果/假若/若要/若/倘若。 ， 就/那么/</p>

		<p>那就</p> <p>假使。。。 , 就。。。。。</p>
	<p>取舍关系</p> <p>Qiyoslash ergash gaplar</p>	<p>拧开。。。 , 也。。。。。</p> <p>与其。。。 , 不如。。。。。</p>

1.3. Xitoy tilida bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Qo'shma gap tuzilishiga ko'ra sodda gapga o'xshash ikki va undan ortiq predikativ birlikning intonatsiya va mazmun jihatdan bir butunlikni hosil etish bilan yuzaga keluvchi gap- bu bog'lovchisiz qo'shma gapdir; gapning qurilish jihatdan alohida turidir¹⁴.

Qo'shma gap tuzilishi va tarkibiy qisimlariga ko'ra sodda gapdan farq qiladi. Sodda gapni tashkil qiluvchi komponentlar so'z va so'z birikmalari bo'lsa, qo'shma gapning komponentlari sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, qo'shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil topadi.

Xitoy tilida ham o'zbek tiliga o'xshagan qo'shma gaplar qanday mazmun va munosabatlarni ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi va intonatatsiyasiga ko'ra 3 asosiy turga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gaplar 并列复句

2. Ergashgan qo'shma gaplar 偏正复句

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar 无连接词复句

Tarkibida predikativ birliklar o'zaro bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida emas, balki boshqa vositalar yordamida birikkan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanib, bunday qo'shma gaplarda ohang muhim ro'l o'ynaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar aksar hollarda bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan o'xshash, munosabatdosh ko'rinsada, ular ana shu turdagi gaplarning bog'lovchisiz varianti emas, balki qo'shma gaplarning alohida turi hisoblanadi¹⁵.

¹⁴李德律.外国人实用汉语语法.-北京语言大学出版社,2009年,583页.

¹⁵李德律.外国人实用汉语语法.-北京语言大学出版社,2009年,553页.

Masalan: 我学习汉语，她学习日语。

Men xitoy tilini o'rganyapman, u yapon tilini o'rganyapti.

Tarkibidagi predikativ birliklar o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikkan (teng aloqali) qo'shma gaplar, bog'langanqo'shma gaplar(并列复句) bo'lib,ular tarkibiy qismlari shaklan mustaqil ko'rinsada mazmun va tuzilishi jihatdan bir butunlikni tashkil etadi.

Masalan:

这件事可以这样处理，也可以那样处理。

Bu ishni bunday hal qilsa ham bo'ladi, unday hal qilsa ham bo'ladi.

Qo'shma gaplar (复句) ikki yoki undan ortiq bir-biri bilan ma'no jihatidan bog'liq bo'lgan sodda gaplardan tuzilgan gaplardir. Qo'shma gapni tashkil etgan qiluvchi sodda gaplarning har biri qo'shma gapning bo'lagidir. Shu ikki bo'laklarning orasida albatta fonetik to'xtash, ya'ni pauza bo'adi.

Masalan:

如果明天不下雨，我们就去长城。

Agar ertaga yomg'ir yog'masa, biz Buyuk Xitoy devoriga boramiz.

这个电影我看过，今天晚上不去看了。

Men bu kino filmni ko'rganman, bugun kechqurun ko'rgani bormadim.

他不去，我也不去。 *U bormasa, men ham bormayman*¹⁶.

Qo'shma gaplarning bo'laklari yaqqol ajralib turadi va bir- birining tarkibida bo'lmaydi¹⁷.

¹⁶ Каримов А.Хитой тилининг асосий грамматик бирликлари. -Т., 2001 й. ТошДШИ.-21 бет.

Bog'lovchi vositalarsiz birikkan qo'shma gaplarga mavjud adabiyotlarda bir xil ta'rif beriladi: ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik bog'lovchilar yordamisiz birikuvidan tashkil topgan qo'shma gaplar bog'lovchisiz *qo'shma gaplar bo'ladi*.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan qismlar orasida semantik munosabatlar quyidagi yo'llar bilan ifodalanadi:

1. Turli intonatsiya va puza
2. Gap bo'laklari va gaplarning o'rinishi;
3. Ayrim gap bo'laklari (asosan,olmosh va fe'l bilan ifodalanuvchi)ning semantikasi;
4. Ayrim gap bo'laklarining takrori. Bunda olmoshlarning ro'li kattadir (takrorlangan bo'lak gaplarni semantik jihatdan bog'liq);
5. Qo'shma gap qismlari orasidagi semantik munosabatni konkretlashtirish uchun ayrim leksik elementlar.

Bog'lovchisiz qo'shma gapni tuzishda gap intonatsiyasining va qo'shma gap tarkibida sodda gaplarni o'rinishining alohida ahamiyati bor.

Intonatsiya sodda gapni biriktirib, bog'lovchisiz qo'shma gap hosil qilishda muhim ro'l o'ynaydi.

风吹散了乌云，出现了太阳。 Shamol bulutlarni uchirdi, quyosh ko'rindi.

Bu qo'shma gap tarkibidagi har qaysi sodda gapni alohida olib, tugallangan intonatsiya bilan talaffuz etilsa, bir-biriga aloqasi bo'lmagan ikki mustaqil gap kelib chiqadi. Intonatsiyani o'zgartirish bilan, ya'ni birinchi gapni ko'tarilgan intonatsiya bilan aytish va har ikki jumla orasida mahsus pauza berish va ikkinchi gapni pasaytirib boruvchi tinch ohang bilan talaffuz etish natijasida bu ikki gap bog'lovchisiz gap bo'lib birlashadi.

¹⁷Ўша манба.

Gapni biriktiruvchi grammatik va leksik vositalar qancha kam bo'lsa yoki bo'lmasa, qo'shma gap tarkibidagi gaplar shunchaki bir-biriga kirishib ketadi, intonatsiyaning roli shuncha ahamiyatli bo'ladi¹⁸.

Intonatsiya bog'lovchisiz qo'shma gaplarning bir turini ikkinchisidan farqlashda ham muhim rol o'ynaydi.

风吹散了乌云，出现了太阳。 *Shamol bulutlarni haydadi, quyosh ko'rindi.*

Qo'shma gapda payt ma'nosi 出现了太阳 *quyosh paydo bo'ishi* –风吹散了乌云 *shamol bulutlarni haydashi* bilanoq tezda ro'y bergani anglashiladi va bu qo'shma gaplar guruhiga kiradi.

Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarni o'z o'rni bo'ladi, shu o'ringa ko'ra boshqa sodda gap bilan birikadi, ma'lum maqsadni, fikrni ifodalaydi. Gap o'rinlarining o'zgarishi yoki shu qo'shma gapning buzilishiga olib keladi yoki qo'shma gapning bir turidan ikkinchi bir turiga o'tib ketishiga sabab bo'ladi.

Gorelov V.I.ning “Грамматика китайского языка” deb nomlangan risolasida xitoy tilida bog'lovchisiz qo'shma gaplar (无连接词复合句)ga quyidagicha ta'rif beradi: “Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda bog'lovchilar va sintaktik munosabatni ifodalovchi vositalar mavjud emas. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning qisimlari intonatsiya yordamida bog'lanadi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni ifodalashda intonatsiya muhim ro'l o'ynaydi. Shuningdek, qo'shma gapning gap bo'laklari tartibli joylashuvi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.”¹⁹.

Masalan:

¹⁸ Абдурағмонов. F Қўшма гап синтаксиси асослари. –Тошкент: “Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти”, 1996. - Б.250.

¹⁹ Горелов В.И. Грамматика китайского языка.- М., “Просвещение”, 1974. - С.247.

在高速公路上大汽车跑在慢车道上，轿车跑在快车道上。Magistral yo'lda katta mashinalar sekin harakatlanadigan yo'ldan yurmoqda, yengil avtomabillar tezyurar yo'lakdan yurmoqda.

由于发生交通事故火车晚点了，我们没能按时到达。Yo'l transporti hodisasi ro'y berganligi sababli poyezd kechikdi, biz o'z vaqtida manzilga yetib bormadik.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ayrim turlari uchun so'zlarning joylashuvi tartibi nisbati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nisbat ba'zan qo'shma gapning har ikki bo'lagida mavjud bo'lgan so'zlarning bir so'z turkumiga oid ekanligi bilan aks ettiriladi.

Ayrim hollarda bog'lovchisiz qo'shma gaplar, har ikki bo'lakda mavjud bo'lgan gap bo'laklarining bir xil tartibi bilan ham xarakterlanadi.

Shuningdek, bog'lovchisiz qo'shma gaplarda fe'l shakllari ham ayrim ahamiyatga ega bo'ladi²⁰.

Xitoy tilida bog'lovchisiz qo'shma gaplar foydalanishiga ko'ra asosan og'zaki nutqda, shuningdek, badiiy adabiyotning dialog shaklidagi nutqida ko'p uchrashi kuzatiladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ma'no munosabatiga ko'ra to'siqsizlik munosabatini, payt va shart munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga bo'linadi.

Biz quyida bog'lovchisiz qo'shma gaplarning xitoy tilidagi qo'shma gaplarning ma'no munosabatiga ko'ra turlarini ko'rib chiqamiz.

Xitoy tilida bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

1.To'siqsizlik munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar

²⁰ Горелов В.И. Грамматика китайского языка.- М: «Просвещение»,1974.- С.246.

To'siqsizlik munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarda ma'no jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki gap o'zaro birlashgan bo'ladi. Bunday gaplar o'z tarkibida faqat ikki bo'lak mavjud bo'ladi.

Ushbu turdagi bog'lovchisiz qo'shma gaplar uchun qiyoslash intonatsiyasi xarakterlidir. Ular davomli pauza bilan ajratilgan bo'lib, gapning birinchi qismi yuqori ohang bilan, ikkinchi qismi es biroz pastroq ohang bilan talaffuz qilinadi. Mazkur gaplarda mantiqiy urg'u simmetrik tarzda tushadi. Urg'u o'z funksiyasiga ko'ra bog'lovchisiz qo'shma gaplarning har ikki qismidagi gap bo'laklariga tushadi.

To'siqsizlik ma'noni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar so'z tarkibining o'zaro aniq mutanosibligi bilan ham xarakterlidir. Gapning har ikki qismida mavjud bo'lgan gap bo'laklari aynan bir so'z turkumiga tegishli bo'ladi. .

To'siqsizlik ma'noni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ayrimlarida, gapning har ikki qismida so'zlarning tartibi ham o'zaro mutonosib bo'ladi²¹.

Quyida to'siqsizlik ma'noni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarga misollar keltirib o'tamiz:

他是先生，我是学生。 U janob, men o'quvchi.

Ega → kesim → aniqlovchi ↔ Ega → kesim → aniqlovchi

Kishilik olmoshi + fe'l + ot ↔ Kishilik olmoshi + fe'l + ot;

我看书，他写字。 Men o'qiyman, u yozyapti.

Ega → kesim → to'ldiruvchi ↔ ega → kesim → to'ldiruvchi

Kishilik olmoshi + fe'l + ot ↔ Kishilik olmoshi + Fe'l + Ot;

这张桌子大，那张桌子小。 Bu stol katta, anavi stol kichkina.

²¹Ўша манба. 247 бет

Hol →ega→kesim ↔ hol→ega→kesim

Kishilik olmoshi →Ot→sifat ↔ Kishilik olmoshi →Ot→sifat;

赵先生是上海人，李太太是天津人。Janob Jao shanxaylik, Li xonim tianjinlik. Ushbu gapda shanxaylik va tianjinlik so'zlari o'zaro to'siqsizlik ma'noda ishlatiladi.

你白天值班，我晚上值班。Sen kunduzi navbatchilik qilasan, men kechqurun navbatchilik qilaman. Bu gapda kunduzi va kechqurun so'zlari qarama-qarshi ma'noda keltirilgan.

我在外面工作，她在家里做家务。Men ko'chada ishlayman, u uy ichida ishlaydi. Mazkur gapda uyda va ko'chada so'zlari to'siqsizlik ma'nosida ishlatilgan.

Yuqorida tahlilga tortilgan gaplarning barchasida, qo'shma gapning har ikki qismidagi gap bo'laklari aynan bir so'z turkumiga oid ekanligini ko'rishimiz mumkin. Gaplarda so'zlar tartibi va joylashuvi sintaktik va morfologik jihatdan parallel joylashgan.

Yana bir qancha misollarni ko'rib chiqamiz:

哈尔滨室内冬暖夏凉，南京室内冬冷夏热。Harbinda uy ichi qishda issiq, yozda sovuq, Nankinda uy ichi qishda sovuq, yozda issiq.

这个男学生书面较好，那个女学生口语较好。Bu o'gil bola talabanning yozma nutqi nisbatan yaxshi, anavi qizning og'zakisi nisbatan yaxshiroq.

Misol qilib keltirilgan gaplarda to'siqsizlik ma'no ifodalangan bo'lib, qo'shma gapning har ikki qismidagi to'siqsizlik ma'nosi kuchaytirib ko'rsatilgan²².

²²Чжао Юйпин. Сопоставительная грамматика китайского и русского языков. М., "Прогресс". 2003 г. –С.398 .

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda to'siqsizlik ma'noni yanada kuchaytirish imkonini beruvchi to'ldiruvchi vositalar, ya'ni kirish so'zlar ham qo'lanishi kuzatiladi. Ular vositasida gapdagi to'siqsizlik ma'no yanada kuchliroq ifoda etiladi. Bular 倒, 倒是 – *aksincha*; 可, 可是 – *biroq* kabi kirish so'zlar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan kirish so'zlar o'z ma'no mazmuniga ko'ra bog'lovchisiz qo'shma gaplarda to'siqsizlik ma'noni ifodalab, gapning ikkinchi qismidagi ega yoki kesim orasiga qo'yiladi.

Masalan:

你受得了, 我可受不了。 *Sen bunga chiday olasan, men umuman chiday olmayapman.*

小张不会, 我可是很会。 *Sya Djan qila olmaydi, lekin qila olaman.*

Chjao Yuaning “Xitoy va rus tillarining qiyosiy grammatikasi” nomli risolasida to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarga quyidagicha ta'rif keltirilgan: 这种句子表达的共同意思是结果与原因或条件不相适应, 适得其反²³。 Ya'ni, bu turdagi gaplarning umumiy ma'nosi gapdagi natija, sabab yoki shart-sharoitni ifodalashda aynan bir biriga to'siqsizlik bo'ladi.

Payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tarkibidagi sodda gaplar orqali ifodalangan voqea, hodisa bir vaqtda ro'y berishi har ikki gapdan anglashilgan voqea, hodisa bir vaqtda boshlanib, bir vaqtda tugalanishi mumkin yoki sodda gaplarda ifodalangan voqea hodisaning ro'y berish vaqti qisman mos kelishi mumkin. Bunday holda sodda gaplarning biridan anglashilgan voqea, hodisa

²³Чжао Юйпин. Сопоставительная грамматика китайского и русского языков. –М: “Прогресс”. 2003 г. –С.398.

ma'lum vaqtda ro'y berib shu vaqtda ikkinchi gapdan anglashilgan voqea, hodisaning ro'y berishi qisman mos kelib qoladi.

Payt munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarda ayni bir vaqtda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar yoki o'zaro ketma-ketlikda sodir etiladigan harakatlar birgalikda ifoda etiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning mazkur turi uchun sanash, ketma-ketlikni ifodalovchi intonatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shma gapning ohirgi bo'lagidan tashqari, xar bir bo'lagi ohirida yuqori intonatsiya kuzatiladi.

那人下星期二回来，就正常发货。 *U kishi kelasi seshanba kuni qaytib keladi, biz tovarni hotirjam jo`natamiz.*

把这件事处理了，我就回家一趟。 *Shu ishni bajaraman, uyga borib kelaman.*

发去指示，他们就会立即行动。 *Ko`rsatmalarni jo`nating, ular darhol ishga kirishadi.*

Payt munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarda fe'l shakllari muhim grammatik ahamiyatga egadir.

Payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar bir paytda yoki ketma-ket sodir etilyotgan harakatni sanab o'tadi. Bunday qo'shma gaplarda denativ voqealar bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladi. Misollarga murojaat etamiz:

夜更深，天更黑了。 Yarim kecha bo'ldi, osmon yanada qorayib ketdi..

Xitoy tilidan aynan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida gap muvofiq bo'lsada, grammatik hususiyatlari aynan mos kelmasligi mumkin. Ya'ni har bir gapni tarjima qilishda asosan leksik birliklarning tartibi va joylashuvi mos kelishi mumkin bo'lmay qoladi. Yuqorida keltirilgan gapni o'zbek tiliga tarjima

qilganimizda, “*Yarim kecha bo’lib, osmon yanada qorayib ketdi*” qarama-qarshi tarjima qilinsa, yanada mos kelardi.

天已放晴，雨后的空气各处新鲜。*Kun ochilib, yomg’irdan so’ng havo yanada musaffo bo’ldi.*

我买票，他忙着照看行李。*Men bilet olyapman, u yuklarga qarab turibdi.*

我正想出门，天突然下了倾盆的大雨。*Ayni paytda men tashqariga chiqmoqchi bo’lganimda, chelaklab yomg’ir quyib yubordi.*

Yuqorida tahlil qilingan payt munosabatini ifodolovchi bog’lovchisiz qo’shma gaplarda mazmuniga ko’ra har ikki bo’lakdagi voea-hodisalar ayni bir payitda sodier etilyotganini e’trof etishimiz mumkin.

Har bir gapda ifodalangan fe’l shakliga ko’ra qo’shm agapning har ikiki bo’lagida ham aynan shu shakilda ishlatilgan.

Mazkur misolradagi denotatlar birin ketin sodir bo’lmoqda birinchi denont (天已放晴) tugashi ikkinchi denotat (雨后的空气各处新鲜) sodir bo’lmoqda. Bu gaplar orasida mustahkam ichki bog’lanish mavjud. Ikkinchi denotatning yuzaga kelishi birinchi denotatning bajarilishi bilan bog’liq. Gaplarning pozitsiyon joylashishi ham qatiy: birinchi denotatni ikiinchi o’ringa o’tkasib bo’lmaydi. Demak, semantik jihatdan ikkinchi denotat birinchi denotatni o’ziga tobelashtirib kelmoqda. Birinchi denotat ikkinchi deonatning bajarilish payitini bildirgan.

Payt munosabatini ifodolovchi bog’lovchisiz qo’shma gaplarda denotatlar ayni bir payitda sodir etilyotgan voqiya hodisalarni ifodalabgina qolmay voqea-hodisalarning ketma-ket sodir etilishini ham ifodalashi ham mumkin. Quydagi misollarni ko’rib chiqamiz:

有的战士鞋子破了，用毯子跑着脚走，毯子破了，光着脚走。

Ayrim askarlarning oyoq kiyimi yirtilib ketgan, oyoqlarini mato bilan o`rab olib yurardilar, mato yirtilib ketganda oyoq yalang yurardilar.

们忽然开了，车门嘈杂的机器声飞了进来。

Eshik to'satdan ochilib, xonaga sexda ishloyotgajn mashinalar ovozi eshitildi.

Yuqorida keltirilgan misollarni tahlil qilsak ushbu misollarda ish harakat birin ketin sodir etilganini ko'rishimiz mumkin. Birinchi misolda yozilishicha askarlarning oyoq kiyimlari yirtilib ketganidan so'ng oyoqlariga mato boylab yurishgan, so'ng mato yirtilib ketgan va askarlar oyoq yalang yurishgan.

Ikkinchi misolda aytilishicha avval eshik ochilgan, so'ng sex ichidagi stanoklarning shovqini xonaga eshitilgan.

Voqea- hodisalarning ro'y berishi iki hil bo'lishi mumkin. Birinchi holatda bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibid bo'lgan bir sodda gapdan anglashilgan voqea-hodisa tuganlangach ikkinchisi boshlanadi, ikkinchi xil qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplarda ifodalangan voqea-hodisaning ro'y berishi o'rtasida keskin chegara bo'lmaydi, birinchi gap tuganlanmay ikkinchisi boshlanadi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tarkibidagi birinchi gap ikkinchi gapda anglashilgan voqe-hodisaning ro'y berish yoki bermaslik payitini ifodalaydi. Payt munosabati anglashilgan gaplardan tuzilgan bu hil bog'lovchisiz qo'shma gaplarda intonatsiyaning ro'li katta. Intonatsiya har ikki gapni bir-biriga biriktirib qo'shma gap hosil qiladi. Odatda birinchi gap ko'tariluvchii intonatsiya bilan talafuz qilinadi, undan so'ng pauza berilib ikkinchi gap bir tekisda talafuz etiladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplarning kesimidan anglashilgan harakat holat belgi hususiyatning ro'y berishi shu qo'shma gapda ifodalangan mazmunga mos keladi. Qo'shma gap tarkibidagi bir sodda gap kesimining bir hil zamon shakli va mazmunida bo'lishi shu qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi gap kesimining unga muvofiq bo'lishini taminlaydi.

Shart munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Shart munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarda, ikki tafsilot birlashtirilgan bo'lib, ulardan birinchisi ikkinchisini shartlab keladi. Bu turdagi qo'shma gaplar faqatgina ikki qismdan iborat bo'lishi mumkin.

Shart munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar gap bo'laklarining aniq va tartibli joylashuvi bilan xarakterlanadi: gapning birinchi qismi shartni ifodalaydi, ikkinchi qismida ushbu shartni amalga oshirish tartibi ifoda etiladi.

Bog'lovchilar bilan ifodalangan qo'shma gapdan o'laroq, shart munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda gap bo'laklarining qayta tartibda joylashuviga yo'l qoyilmaydi.

Quyida misollarni ko'rishimiz mumkin:

你再不答应，我可生气了。 Sen keyinchalik ham javob bermasang, meni juda jahlim chiqadi..

早知道这么着，要命也不来。 Agar shunday bo'lishini ertaroq bilganimda edi, hech ham kelmasdim.

家里不给我钱，我会向别人借。 Uydagilar menga pul bermasa, men boshqa odamdan qarz olishim mumkin.

Ayrim hollarda shart munosabatini ifodalash uchun bog'lovchisiz qo'shma gapning har ikki qismida modal fe'llarning ishtiroki ham kuzatiladi. Masalan:

要作到这一步，得下快心。 Shuni amalga oshirishni istasang, qat'iylik bilan ish ko'rishing kerak.²⁴

²⁴.Горелов В.И. Грамматика китайского языка. М. «Просвещение», 1974 г., 251 с.

Qo'shma gapning qismlari orasidagi shartlik munosabati konkret bo'lishi mumkin.

Konkret shart ifodalanganada, ikkinchi gapdan anglashilgan voqea-hodisaning ro'y berishi uchun ma'lum paytda ro'y beruvchi konkret shart qo'shma gapning birinchi qismida ifodalanadi:

要争取胜利，兴奋斗到底。G'alabaga erishmoqchi bo'lsang, oxirigacha kurashish lozim.

观察必须深入实际，去发现问题，并寻求解决问题的办法。Kuzatish uchun amalyotga kirishib ketish kerak, muammoni topib uni hal qilish usullarini topish kerak.²⁵

Qo'shma gapning ikkinchi qismida anglashilgan voqea-hodisaning ro'y berishi har vaqt qanday shart asosida bo'lishini ifodalaydi. Bunda shartlik mazmuni ma'lum konkret zamon bilan bog'lanmaydi. Konkret shartlik emas, umumiy shartlik ifodalanadi. Bu xil qo'shma gaplar asosan maqollarda, umuman doimo bo'ladigan voqea-hodisalarni ifodalovchi gaplarda qo'laniladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning o'zaro bog'lanish usullari

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar mahsus yordamchilar yoki boshqa bir grammatik vositalar bilan o'zaro bog'lanmaydi. Ammo bunda sodda gaplar mehanistik ravishda o'zaro qo'shib bog'lovchisiz qo'shma gapni hosil qiladi, degan xulosa kelib chiqmaslik kerak. Har qanday bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar o'zaro ma'lum bir vositalar yordami bilan birlashadi, qo'shma gapni hosil qiladi. Qo'shma gap tarkibidagi ayrim leksik elementlar, ayrim gap bo'laklarning leksik va grammatik xarakteri, gap sturukturasi va o'rni intonatsiya bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil

²⁵Чжао Юйпин. Сопоставительная грамматика китайского и русского языков. М. Издательская группа «Прогресс», 2003 г., 412 с.

etgan sodda sodda gaplarni o'zaro biriktiruvchi vositalar ro'lini bajaradi. Bundan tashqari, bog'lovchisiz qo'shma gap hosil qilishda katta ro'l o'ynaydi²⁶.

1. Leksik elementlar

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida ayrim so'zlar bo'lib, ular o'z mazmuniga ko'ra, sodda gaplarni biriktirib qo'shma gap hosil qilishda katta ro'l o'ynaydi. Bu xil so'zlar(leksik elementlar) ishtirok etgan bir sodda gap ikkinchi bir gapni talab qiladi:

这个年轻工作人员很有教养，相当聪明，况且工作十分勤奋。

Bu yosh xodim juda tarbiyali, judda aqlli, shuningdek u ishda juda tirishqoq. Mazkur qo'shma gap tarkibida ishlatilgan *shuningdek* so'zi birinchi gap bilan aloqador bo'lgan voqea- hodisa haqida xabar ifodalangan ikkinchi gapni birinchisi bilan mazmunan bog'laydi.

我跟她在家乡城市年轻时分别了，从那以后过去 50 年，没再见过面。

Biz u bilan yoshligimizda o'z shahrimizda ajrashgandik, shundan so'ng oradan 50 yil o'tdi, boshqa uchrashmadik. Shundan so'ng, shundan keyin va unga sinonim bo'lgan boshqa leksik variantlar ketma-ket ro'y beruvchi voqea-hodisalarning ifodalovchi sodda gaplarni biriktiradi va payt holi funksiyasi qo'llaniladi.

1. Ayrim bo'laklarning takrorlanishi

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ko'p turlarida fikr gapning biror bo'lagi ustida boradi. Bunday qo'shma gaplarning odatda ikkinchi qismini alohida olinsa, biror narsani tushunish qiyin. Ikkinchi gap, albatta, har ikki gapni bir-biriga yaqinlashtiradi, qo'shma gapni hosil qiladi.

Izoh talab etgan so'z birinchi gap tarkibida bo'ladi, ikkinchi gap tarkibida esa shu so'z turli forma va funksiyada qo'llaniladi, ikkinchi gap umumiy mazmuni bilan takrorlangan bo'lakning mazmunini izohlaydi, to'ldiradi yoki u haqda qo'shimcha ma'lumot beradi.

²⁶ Абдурахмонов Ф.. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент. Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти. 1958 й., 237 б.

Umumiy gap bo'laklari har ikki gapda bir xil funksiyada bo'lishi yoki turli funksiyalar bo'lishi mumkin.

在中学时代体育老师上体育课非常认真，这对所有学生的体质锻炼起了重大作用。O'rta maktabda o'qib yurgan paytimda jismoniy tarbiya o'qituvchimiz darsni juda chin ko'ngildan o'tardi, **bu** o'quvchilarning chiniqishida juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

在渤海湾岸上有个山海关，举世闻名的长城就从那里开始。Bohay ko'rfazi sohilida Shanhaiguan shahri bor aynan o'sha yerdan barchaga mashxur bo'lgan Buyuk Xitoy Devori boshlanadi.

这人和他的前任是一丘之貉，这出乎我的意料。Bu kishi va undan oldingi boshqaruvchi ikkisi birday ekan, bu mening kutganimni aksi bo'ldi.

Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning biri struktura jihatdan shunday tuziladiki, uni qo'shma gapning boshqa gapidan tashqari tushinish mumkin emas. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar struktura jihatdan bir-birlariga bog'liq bo'lib qoladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplarning biri to'liqsiz shaklda bo'ladi.

Bu turdagi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda gap ikkinchisini izohlaydi

Mazkur bob yuzasidan xulosalar: xitoy tilidagi qo'shma gap sintaksisini ochib berishga harakat qildik.

Bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordami bilan tuzilib, bir butunlikni tashkil etgan, mazmunana ma'lum bir murakkab fikrni ifodalovchi gaplar birikmasiga qo'shma gap deyiladi. Xitoy tilida qo'shma gaplar ma'no munosabatiga va boglanish usiliga ko'ra uchta turga bo'linadi, bular:

- Bog'langan qo'shma gaplar 并列复句 bìnglièfùjù
- Ergashgan qo'shma gaplar 偏正复句 piānzhèngfùjù

➤ Bog'lovchisiz qo'shma gaplar 无连接词复句 wúliánjiēcífùjù

II.BOB.Xitoy va o'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili

2.1.O'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplar

Tobelashtiruvchi bog'lovchilar yoki boglovchi vazifasidagi vositalar yordami bilan aloqaga kirib, biri ikkinchisiga mazmunan tobe bo'lib, uni izohlab kelgan gaplar birikmasidan tashkil topgan qo'shma gap turiga ergash gapli qo'shma gaplar deyiladi.

Ergash gapli qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar hususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi : boshqa bir gapga ergashib, tobe bo'lib ,ikkinchi bir gapni izohlab ,to'ldirib keluvchi gaplar ergash gaplar bo'lsa, mazmuni izohlanyotgan boshqaruvchi gap bosh gap hisoblanadi.

Bosh va ergash gap gramatik hamda mazmunan bog'lanib yaxlit birlikni tashkil etadi va umumiy bir fikrni ifodalaydi.

Bosh va ergash gap o'zaro: 1) fe'ning funksional shakllarining qo'llanishi (turli grammatik vositalar bilan birikkan sifatdosh,ravishdosh,shart fe'li); 2) yordamchi so'zlar orqali munosabatga kirishadi.

Ergash gaplarning tasnifi

Ergash gaplar, ifodalanayotgan mazmun va vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: aniqlovchi, to'lduruvchi, ega, kesim, payt, sabab, maqsad, shart, to'siqsiz, natija, ravish, qiyoslash, umumlashtiruvchi izoh ergash gaplar.

Ergash gapli qo'shma gaplarning turlari

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Aniqlovchi ergash gap bosh gap tarkibidagi ot yoki olmosh orqali ifodalangan biror bo'lakni belgi-hususiyatini izohlab keladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga –ki qo'shimchasi, bundan tashqari , bosh gap tarkibida shunday, bir olmoshlari va unga mos holda ergash gap tarkibida

bunday, bu, bu xil, yoki u, uning olmoshlari bilan hamda -gan, hamda degan sifatdosh bilan bosh gapga bog'lanadi.

- ❖ -ki
- ❖ shunday/bir(olmoshlari)
- ❖ bunday/bu/ bu hil, u/ uning(olmoshlari)
- ❖ bir/shu/ o'sha
- ❖ -degan
- ❖ -gan

Paxta tolasi va chigit shunday xazina manbai ekanki , undan olinadigan narsalarning son-sanog'I yo'q.

Men shunday bir ish qildimki, u o'lgunumcha meni rohatdan mahrum qiladi.

Saida gap tamom bo'ldi degan hayolda o'rnidan turmoqchi edi, Nosirov to'xtatdi.

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar

To'ldiruvchi ergash gap bosh gap tarkibidagi biror bo'lakning (olmoshning yoki mavhum otning , shuningdek, fe'l kesimning) ma'nosini aniqlash yo'li bilan bosh gapni va uning kesimidan anglashilgan mazmunni to'ldiradi.

To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapdan so'ng kelib, unga analitik yo'l bilan bog'lanadi.To'ldiruvchi ergash gap bosh gap kesimi tarkibidagi *-ki* bog'lovchisi orqali va bosh gap tarkibidagi *shu* nisbiy olmoshi orqali bosh gapga bog'lanadi, ergash gap ana shu olmoshning mazmunini ochadi,bu olmosh to'ldiruvchi vazifasida keladi.Yana to'ldiruvchi ergash gap bog'lovchi vazifasidagi *deb* ravishdoshi bilan bosh gapga bog'lanadi.

Ayrim vaqtda to'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap bilan *fe'lning shart mayli shakli, -mi yuklamasi* orqali ham birikishi mumkun. To'ldiruvchi ergash gap bosh

gap bilan –ki, -mi yordamchilari orqali birikkanda bosh gapdan keyin keladi, fe’lning shart mayli orqali bog’langanda esa, bosh gapdan oldin keladi.²⁷

- -ki
- shu
- shu narsa
- -deb

Shundan bilamizki , mushtimzo ’r tipirchilab qoladi.

Shuni istardiki ,qasos shamshiri qonxo ’r jallodning boshini olsa.

Ega ergash gapli qo’shma gaplar

Ega ergash gap deb, bosh gap tarkibidagi ega vazifasida bo’lgan olmoshlarning ma’nosini aniqlab keluvchi yoki bosh gapga nisbata ega vazifasida bo’lgan ergash gapga aytiladi.

Ega ergash gaplar bosh gapning tarkibidagi olmosh orqali ifodalangan egani izohlaydi, uning ma’nosini aniqlashtiradi.

Ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi. Bu xil gap qurilmalarida asosiy mazmun ergash gapda ifodalanadi.

Ega ergash gap bosh gap bilan *fe’lning shart mayli shakli va –ki yordamchisi* orqali birikib keladi.²⁸

Ergash gap bosh gapdan so’ng kelib ,bosh gapning ot yoki fe’l kesimga qo’shib kelgan – *ki* bog’lovchisi orqali bosh gapga boglanadi. Bunda ergash gap bosh gapga uning tarkibidagi ega vazifasida bolgan *shunisi, shu, shu narsa* kabi olmosh yoki olmosh va ot birikmasining mazmunini izohlaydi.

- ❖ -ki
- ❖ shunisi

²⁷ Asqarov M. O’zbek tili praktikumi.-T: “Iqtisod-moliya”.2006-B.271.

²⁸ Asqarov M. O’zbek tili praktikumi.-T: “Iqtisod-moliya”.2006-B.268.

- ❖ shu ,shu narsa
- ❖ ko'rinib turibdiki/o'z-o'zidan ma'lumki/ malum bo'ldiki/ ajab emaski/ shunisi borki/
- ❖ bo'lmas (bo'ldi/ bo'ladi)

Yo'lchiga shunisi qiziq tuyildiki, bu yerda qay tomondan qaramang hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf turadi.

Kesim ergash gapli qo'shma gap

Kesim ergash gap deb, bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida bo'lgan olmoshning va u orqali eganing ma'nosini aniqlashtirib keluvchi ergash gapga aytiladi.

Bosh gap tarkibida ma'nosi aniqlanayotgan shu, shunda, shunday(shunaqa) ko'rsatish olmoshlari ergash va bosh gapni biriktiruvchi vosita vazifasida ham keladi. Bundan tashqari ,bosh va ergash gapni bog'lash uchun –ki boglovchisi ishlatiladi. Kesim ergash gap har doyim bosh gapdan so'ng keladi.bosh gapning kesimi ko'rsatish olmosh olmoshi orqali ifodalanilib , bu olmosh kesimning ma'nosini ergash gapda ochiladi.

- ❖ -ki
- ❖ shu/ shunday/ shunda
- ❖ shundaki
- ❖ iboratki

Demak, xulosa shuki, vaqtida suv, vaqtida o'git, vaqtida kultivatsiya, ham chopiq.

Payt ergash gapli qo'shma gaplar

Payt ergash gap bosh gapning biror bo'lagidan ,asosiy kesimidan,yoki bosh gapning umumiy mazmunidan anglashgan harakat-holatning ro'y berishi yoki ro'y bermaslik paytini ko'rsatadi.Payt ergash gap bilan bosh gap orasida zamon

munosabati mavjud bo'ladi; bunda ergash gap bosh gapdagi harakat, hususiyat bilan barobar, bir vaqtda ro'y berishi yoki undan oldin yo so'ng kelishi mumkin.

Bosh va ergash gaplar orasidagi bunday mazmun munosabatni ifodalashda – da qo'shimchasini olgan sifatdosh orqali, payt ergash gapning kesimi shart fe'li orqali ifodalaniladi, ergash gapning kesimi sifatdosh shaklida bo'lib o'rin-payt qo'shimchasini olgan payt bildiruvchi choq, payt, kun, zamon, kez, dam, vaqt so'zlari bilan birikib keluvchi, *-dan beri, -dan buyon, -guncha, -mas+ dan, -gach* qo'shimchalari va boshqa bog'lovchi bilan ifodalaniladi.

Qiz orzu- havas ko'ra olmagan onasining dashnom va ziqnovlaridan o'lar holatga yetganda, baxtiga, yer islohoti bo'lib qoldi.

Bir kuni Sodiqjon maktabdan kelsa, ukalari bog'da ish boshlab yuboribdi.

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gapdan anglashilgan mazmun qanday sabablar asosida ro'y berishi yoki bermasligini ko'rsatuvchi ergash gaplar sabab ergash gap hisoblanadi. Sabab ergash gaplar bosh gapga *chunki, negaki, shuning uchun* kabi bog'lovchilar va *-gani uchun, -gani sababli, -i(ib)* suffiksli ravishdosh, *shekili* yordamchisi kabi grammatik vositalar orqali birikadi.

- *chunki, sababli/tufayli*
- *negaki*
- *shuning uchun*
- *-gani uchun*
- *-gani sababli*
- *-i(b)*
- *shekilli*
- *zeroki*
- *-ki*

Zaynab yalt etib qaynonasiga qaradi, chunki O'zbek oyimning boyagi gapi endi unga aglashilg'on edi.

Sabab ergash gaplar, asosan, bosh gapdan oldin keladi. *Chunki*, bog'lovchilari orqali bog'langanda esa, bosh gapdan keyin keladi.

Misol: *Kun issiq edi, shuning ushun paxtakorlar dalada o'tirishni istamay uyga kirib o'tirdilar.*

Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi. Maqsad ergash gap bosh gap bilan ko'pincha *deb* yordamchisi bilan birikadi. Masalan:

- deb
- toki
- uchun

*Uyga toza havo kirsin **deb** derazalarni ochib qo'ydim.*

maqsad ergash gap bosh gapga ba'zan, uchun ko'makchisi bilan ham birikadi.

Masalan:

*Inson yashamoqdan tolmasin **uchun** ko'nliga bir dunyo tilak berilgan.*

Shart ergash gapli qo'shma gap

Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelishidagi shartni bildiradi. Shart ergash gap *fe'lining shart mayli shakli –gan affiksini olgan sifatdosh + da(ganda) yordamchisi, -(a) suffiksini olgan sifatdosh+ekan to'liqsiz fe'li va boshqa xil yordamchilar* orqali bosh gapga birikadi.

- ❖ -sa
- ❖ -bo'lsa
- ❖ -gan bolsa

❖ -sa edi(ydi/di)

❖ -ganda

Misol:

Ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy, siyosiy iqlim keskin o'zgaradi.

Ba'zida vaqt shart ergash gapdagi shart mazmunini yanada kuchaytirib ifodalash uchun **agar, bordi-yu, mobodo** yordamchilari qo'shilib ishlatiladi. Misol:

Bordi-yu biz o'z vaqtida xabar yetkaza olmasak, albatta, o'zingiz yo'lga chiqarsiz.

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplar ergash gap va bosh gaplardagi mazmunning zidlikka qaramay yuzaga keladigan voqea-hodisa ifodalanadi. To'siqsiz ergash gap bosh gapga **fe'lining shart mayli shakli+ham yoki -da (-sa+ham, sayam, sa+da) yordamchilari yoki qaramay, bilan ko'makchisi** orqali birikadi. Misol:

➤ -sa

➤ -sa ham

➤ -sada

➤ -sayam

➤ qaramay

Taklif qilmasam ham , ayvondan o'tib, uyga kirdi.

Natija ergash gapli qo'shma gaplar

Bunday qo'shma gaplar ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning natijasini bildiradi. Natijada ergash gap bosh gapga , asosan, **-ki** yordamchisi orqali birikadi. Bunday qo'shma gaplarning bosh gap qismida ko'pincha fe'l kesimga taalluqli bo'lgan(fe'l kesim oldida keladigan) **shunday, chunonan** kabi so'zlar ishtirok etadi. Ayrim vaqtda ergash gap tarkibida **natijada, oqibatda** so'lari ham ishlatiladi. Misol:

*Ular **shunday** inoqlashdiki, Ahmadjon bir masala to'g'risida u bilan ochiq gaplashdi.*

Ergashgan qo'shma gaplarning yordamchilarsiz birikishi

Ergashgan qo'shma gaplar uslubiy talabga ko'ra ba'zan yordamchilarsiz ham qo'llanishi mumkin.

Ergashgan qo'shma gaplarning deyarli barchasi turli yordamchilarsiz, faqat intonatsiya orqali birikishi mumkin.

Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi qaysi xil ergash gaplar yordamchilarsiz birikkanligi qo'shma gapning mazmunidan anglashilib turadi. Ya'ni mazmuniga ko'ra bunday qo'shma gaplarda qaysi yordamchi qo'llanilishi lozimligi sezilib turadi. Masalan: *Qo'rqitmay o'stirdim- botir boldingiz.* bu qo'shma gap shaklan ikki teng huquqli gapdan tuzilganday tuyulsa ham, mazmunan teng bo'lmagan qismlardan tuzilib, unda sabab mazmuni anglashiladi. Ya'ni bu qo'shma gap mazmuniga mos ravishda biriktiruvchi vosita qo'yib: *<Qorqitmay o'strdim, shuning uchun botir bo'ldingiz>* shaklida ishlatsak sabab ergsh gapli qo'shma gap hisoblanadi.

Qo'shma gaplarning murakkab turi

Qo'shma gaplar ba'zan uch yoki undan ortiq komponentlardan tuzilgan bo'lishi bo'lishi mumkin. Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi komponentlaro'zaro munosabatiga ko'ra uch xil ko'rinishga ega bolari:

Komponentlar orasida tenglanish munosabati bo'lib, undagi gaplarning barchasi teng huquqli bo'ladi. Misol:

Qor tingan, yo'llar qorga ko'milib ketgan. Ko'chalar sirg'anchiq edi.

Murakkab qo'shma gaplarning ikkinchi turida tobelanish munosabati asosida ikki va undan ortiq ergash gap bitta bosh gapga tobelanib keladi. Misol:

Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, o'sha ilg'or bo'ladi.

Murakkab qo'sh ma gaplarning yuqoridagi har ikki turi birgalikda- aralash holda kelishi ham mumkin. Bunday murakkab qo'shma gap tarkibidagi komponentlar orasida ham tenglanish, ham tobelanish munosabati mavjud boladi.

Misol :

Til boshqa-yu, dil birdir, chunki el bir. Bu gapda birinchi va ikkinchi gaplar teng munosabtda bo'lsa ikkinchi gap uchinchi gapga tobe bo'lib kelyapti.

O'zbek va xitoy tilidagi ergashgan qo'shma gaplarning qiyosiy tahlili

O'zbek tilida ergashgan qo'shm gaplarning 12 turi mavju bo'lib ²⁹bular:

- Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar
- To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar
- Ega ergash gapli qo'shma gaplar
- Kesim ergash gapli qo'shma gaplar
- Payt ergash gapli qo'shma gaplar
- Sabab ergash gapli qo'shma gaplar
- Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar
- Shart ergash gapli qo'shma gaplar
- To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar
- Natija ergash gapli qo'shma gaplar
- Ravish ergash gapli qo'shma gaplar
- Qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar
- Umumlashtiruvchi izoh ergash gaplarga bo'linadi .

Xitoy tilida ergashgan qo'shma gaplarning yettita turi mavjud bo'lib ³⁰ bular :

- 转折关系 (to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar)
- 因果关系 (sabab ergash gapli qo'shma gaplar)

²⁹ Абдурахмонов. Ғ.Ўзбек тили грамматикаси.-Т: Ўқутувчи.1996.

³⁰ 李德律.外国人实用汉语.北京语言大学.2008年.-616页.

- 条件关系 (shart-sharoit ergash gapli qo'shma gaplar)
- 让步关系 (yo'l beruvchi, rozilik beruvchi qo'shma gaplar) ,
- 目的关系 (maqsad ergash gapli qo'shma gaplar)
- 取舍关系 (qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar)
- 假设关系 (shart ergash gapli qo'shma gaplar)

O'zbek va xitoy tilida to'siqsiz ergash gaplarning qiyosiy tahlili

O'zbek va xitoy tilida ham bu ergash gapning turi mavjud bo'lib ular quyidagi bog'lovchilar yordamida bo'glanadi:

Bu o'zbek tilidagi to'liqsiz ergash gaplarni bog'lashda ishtirok etadigan bog'lovchilar va bog'lovchi vazifasidagi qo'shimhalar:

- -sa
- -sa ham
- -sada
- -sayam
- qaramay
- -ki

Quyida esa xitoy tilida to'siqsiz ergash gaplarni bog'lashda ishtirok etadigan bog'lovchilar:

- 尽管..... , 但是(但/然而/只是/不过/倒/竟然) –.....*bo'lsada, biroq , lekin , aksincha , baribir;*
- 虽然 (虽) , 但是(可是/不过/却/还是) ...*bo'lishiga qaramay , lekin , baribir , aksincha;*
- , 反而/反倒*, aksincha;*

- , 不过 , 只是 , 就是 , 却... *lekin, aksincha, biroq*
- , 其实..... *aslida*
- 固然..... , 但是 , 可是 , 不过..... *rostdan ham, aslida, sa ham, lekin, biroq, aksincha*
- , 却, *aksincha* kabi turg'un konstruksiyalar orqali ifodalanadi.

Misol:

Ko'kda momaqaldiraq tinmasayam, picha –picha uxlab oldik.

Holbuki, sipohigarchilik qancha kichik, shogird peshalik darajasida bo'lsa ham haqiqatda birnav gadolikdan boshqa narsa emas.

Xotin kishining yuragidan farzand dog'i ketsa ketadiki, bunday gapning alami ketmaydi.

Uni bu yerda yaxshi xushlashmaydi, qancha urinsa ham.

道理虽懂，但老太太的话还是让我感到难堪。

虽然他刚来北京不久，但是对这里的公共汽车路线非常熟悉。

二十年没见，老王反而显得更年轻。

听口音他是北京人，其实他是上海人。

我决定相信他，尽管/虽然不认识他

O'zbek va xitoy tilidagi to'siqsiz ergashgapning o'xshash tomonlari

1. Ikkala tilda ham mavjudligi
2. Bog'lovchilarning mavjudligi
3. Ergash gap bosh gapdan oldin kelishi

4. Zidlikni kuchaytirish, yanada ta'kidlash uchun, bosh gapda lekin -可是, ammo- 但是, 不过-biroq, 还是-baribir so'zlarining ishlatilishi.
5. Ergash gap odatda gapning boshida keladi ikkala tilda ham , lekin ular gapning ikkinchi qismida ham kelishi mumkin.

2.2.O'zbek va xitoy tilidagi sabab ergash gaplarning qiyosiy tahlili

O'zbek va xitoy tilida ham bu ergash gapning turi mavjud bo'lib ular quyidagi bog'lovchilar yordamida bo'glanadi:

O'zbek tilidagi sabab ergash gaplarni bog'lashda ishtirok etadigan bo'lovchilar va bog'lovchi vazifasidagi qo'shimhalar:

- *chunki,sababli/tufayli*
- *negaki*
- *shuning uchun*
- *-gani uchun*
- *-gani sababli*
- *-i(b)*
- *shekili*
- *zeroki*
- *-ki*

*Nikohning qimmatini yo'q, **chunki** sen rozi bo'lmagansan, to'grimi?*

Rahmat jamogaki, har ishda hamisha yo'l -yo'riq ko'rsatadi, g'amxo'rlik qiladi.

Quyida esa xitoy tilida sabab ergash gaplarni bog'lashda ishtirok etadigan bog'lovchilar:

- 因为(因)..... , 所以 (便) chunki , *sababli, shuning uchun*
- 由于..... , - ...*ga ko'ra , sababli*
- , 因此..... - *shuning uchun, shu sababli*
- 之所以..... , 是因为 *shuning uchun , chunki*
- 所以..... , 因为..... *shuning uchun, chunki*
- 由于..... , 因此/所以..... *sababli, shuning uchun*
-*,只好..... sababli(boshqa tanlash imkoni yo'q)*
-*,可见..... ko'rinib turibdiki*
-*, 是因为chunki*
- 既然..... , 就..... *modomiki, unda /u holda*

kabi bog'lovchilar bilan yasalgan turg'un konstruksiyalar orqali bosh gapga bog'lanadi.

Misol:

因为我奶奶并不是罗韩大爷的儿媳而且是他的东家

既然罗韩大爷对待我父亲像对待孙子一样，那他就像我曾祖父一样。

因为早上我没叫他，所以明明上学迟到了。

节日要到了，因此大家都忙买礼物。

我之所以伤心了，是因为我爱上了他。

我们都有事，只好让李林去商店买水果。

1. Ikkala tilda ham bunday qo'shm gap turining mavjudligi
2. Bog'lovchilarning mavjudligi
3. Ergash gap asosan gapning boshida kelishi
4. Ergashgan gaplar asosan gapning boshida keladi ,lekin ular gapning ikkinchi qismida ham ishlatilishi mumkin.

O'zbek va xitoy tilidagi maqsad ergash gaplarning qiyosiy tahlili

O'zbek va xitoy tilida ham bu ergash gaplarningning turi mavjud bo'lib ular quyidagi bog'lovchilar yordamida bo'glanadi:

O'zbek tilidagi maqsad ergash gaplarni bog'lashda ishtirok etadigan bog'lovchilar va bog'lovchi vazifasidagi qo'shimchalar:

- -deb
- -toki
- -uchun

*Yashiraman yovuz ilonni yuragimga , **toki** ko'rmasin dushmanlarim xasrat qilsin.*

*Eldan olsam rahmat **deb**, ishladi-chekdi zahmat.*

Paxta tezroq yetilishi uchun, o'g'itni ko'proq solish kerak.

Quyida esa xitoy tilida maqsad ergash gaplarni bog'lashda ishtirok etadigan bog'lovchilar:

- | | | |
|--|---|--------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> ➤ , 好³¹ ➤ , 为的是..... | } |,deb/maqsadida/uchun/.... |
|--|---|--------------------------------|

³¹好 сифат сўз туркумига мансуб сўз бўлиб, мақсад эргаш гапларда боғловчи вазифасида ҳам қўлланилади.

- 为了..... , 为了..... *uchun...., uchun.....*
- , 省得/免得/以免 *....., deb/maqsadida.....*
- , 以便..... *.....,deb/maqsadida.....*
- , 以..... *....., deb/maqsadida.....*

Misol:

你要坚持治病，好早一点儿恢复健康。

他每天走着上班，为的是锻炼身体。

有病因该请假，免得老师生气。

学校买了显得车，以解决学生的交通问题。

O'zbek va xitoy tilidagi maqsad ergash gaplarning o'xshash tomonlari

1. Ikkala tilda ham bunday qo'shm gap turining mavjudligi
2. Bog'lovchilarning mavjudligi

Bu turdagi gaplarning farqli tomonlari

1. O'zbek tilidagi maqsad ergash galarning asosan bosh gapdan oldin keladi, lekin toki bog'lovchisi bilan bog'langanda esa ergash gap bosh gapda keyin kelishi.
 - a. *Paxta tezroq yetilishi uchun, o'g'itni ko'proq solish kerak.*
 - b. *Yashiraman yovuz ilonni yuragimga , **toki** ko'rmasin dushmanlarim xasrat qilsin*
2. Xitoy tilida ergash gaplar ikkinchi gapda ya'ni bosh gapdan keyin kelishi.
 - a. 学校买了显得车，以解决学生的交通问题。

3. Xitoy tilida bog'lovchi so'zlarning ko'pligi.

O'zbek va xitoy tilidagi shart ergash gaplarning qiyosiy tahlili

O'zbek va xitoy tilida ham bu ergash gaplarning turi mavjud bo'lib ular quyidagi bog'lovchilar yordamida bo'glanadi:

- ❖ -sa
- ❖ -bo'lsa
- ❖ -gan bolsa
- ❖ -sa edi(ydi/di)
- ❖ -ganda

Misol:

*Agar bizni ro'yobga chiqaradigan yo'l shu **bo'lsa** – boshla, uka, etagingni ushlaganimiz- ushlagan.*

*Agar komandirlarning hammasi shunday **bo'lsa edi**, ish boshqach tus olardi.*

*Agar so'z Oygiz ustida **bo'lmaganda** , ehtimol, u kulgi yoki hazil bilan javob qaytara olardi.*

Quyida esa xitoy tilida maqsad ergash gaplarni bog'lashda ishtirok etadigan bog'lovchilar:

- 幸亏..... , 不然/否则..... *Yaxshiyamki..., aks holda/ unday bo'lmaganda*
- 要不是..... ,就..... *agar bunday bo'lmasa...,*
- , 否则..... *aks holda*
- 没有..... , 就没有/不会..... *yo'q bo'lsa..., yo'q/ bo'lmaydi.....*
- 要是..... , 就..... *agar*

- 如果/假若/若要/若/倘若..... , 就/那么/那就.....*agar...., unda....*
- 假使..... , 就..... *agar.....,*

Misol:

幸亏你说起开会的事 , 不然我就忘了。

要是老人们同意 , 我就跟她结婚。

没有他妈妈,就没有他

O'zbek va xitoy tilidagi maqsad ergash gaplarning o'xshash tomonlari

1. Ikkala tilda ham bunday qo'shm gap turining mavjudligi
2. Bog'lovchilarning mavjudligi
3. Ergash gap bosh gapda oldin kelishi.

Biz quyida xitoy tilida mavjud bo'lga , lekin o'zbek tili grammatikasiga to'la-to'kisligicha to'g'ri kelmaydigan **shart-sharoit**(条件关系) ergash gaplari ko'rib chiqamiz:

Bosh gapdan anglashilgan voqea-hodisa, belgi-xususiyatni qanday shart-sharoitda ro'y berishi yoki ro'y bermasligini ko'rsatadi.

Shart-sharoit ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi voqea-hodisa, belgi-hususiyatning yuzaga chiqishi uchun ma'lum shart-sharoitni ko'rsatganda, bosh gapga quyidagi bog'lovchilar bilan bog'lanadi:

- 不管..... , 都 (也) - *sa ham*
- 不论..... , 都 (也) *nima bo'lishidan qat'iy nazar,*
nima bo'lganda ham
- 无论..... , 都 (也) –

- 只要..... , 就..... – *faqatgina/-sa, unda...*
- 只有..... , 才..... – *faqat ...bo'lsa gina, unda...*
- 除非..... , 才.....–*agarda/ mabodo....., shundagina*
- 除非..... , 否则/不然..... *sababli, agar bunday bo'lmaganda*

Bu gap turi bildirayotgan ma'no o'zbek tilidagi bir necha gap turlariga to'g'ri keladi. Quyida shuni ko'ib chiqamiz:

- 不管..... , 都 (也) *-sa ham*
- 不论..... , 都 (也) *nima bo'lishidan qat'iy nazar,*
nima bo'lganda ham
- 无论..... , 都 (也)

Shu bog'lovchilar yordamida hosil qilingan xitoy tilidagi ergashgan qo'shma gaplar o'zbek tilidagi to'sizqsiz ergash gaplarga to'g'ri keladi. Masalan:

不管什么地方，我都要去看看。

Qanday joy bo'lsa ham , men baribir borib ko'rishim kerak.

不管有多少困难，我们都能克服。Qiyinchilik qancha ko'p bo'lsa ham, biz baribir yengib o'ta olamiz

不论怎么忙，他每天都要看一小时报纸。Qanchalik band bo'lishidan qat'iy nazar, u har kuni baribir bir soat gazeta o'qiydi.

- 只要..... , 就..... – *faqatgina/ -sa....., unda...*
- 除非..... , 才.....–*agarda/ mobodo....., shundagina*

Bu bog'lovchilar yordamida hosil qilingan xitoy tilidagi ergashgan qo'shma gaplar o'zbek tilidagi shart ergash gapga to'g'ri keladi. Masalan:

我们只要多想办法，工作中的困难（就）一定能克服。

Biz yaxshilab o'ylasak, ishdagi hamma qiyinchiliklarni, albatta, yengib o'tamiz.

我们只要努力，就能取得好成绩

Biz tirishqoqlik bilan harakat qilsak, yaxshi natijalarni qo'lga kiritamiz.

除非我有重要的会议，才不去你那儿。

Agar meni muhim majlisim bo'lsa, unda senikiga bora olmayman.

➤ 只有……，才…… – *faqat ...bo'lsa gina, o'shanda*

Bu bog'lovchi yordamida hosil qilingan qo'shma gaplar o'zbek tilidagi payt ergash gapli qo'shma gapga mos keladi.

只有不怕困难，才能战胜困难。

只有国家富强，人们的生活水平才会提高

➤ 除非……，否则/不然…… sababli, agar, bunday bo'lmaganda Bu bog'lovchi yordamida bog'langa qo'shma gaplar xitoy tilida shart-sharoit ergash gaplari hosil qiladi, o'zbek tilida esa bu bog'lovchi bilan bog'langan qo'shma gaplar aralash qo'shma gapli qo'shma gaplarni tashkil qiladi. Masalan:

除非市长来请我走，否则我决不搬家。

Shahar hokimi meni ketishimni iltimos qildi, agar bunday qilmaganida, men umuman ko'chib ketmagan bo'lardim.

除非老师让我走，否则我决不离开这里。

Ustoz meni ketishimga ruxsat berdilar, agar bunday bo'lmaganda, men umuman bu yerni tark etmasdim.

Bu gaplarda ko'rishimiz mumkinki, birinchi gap bog'lovchisiz ergash gap, ikkinchisi esa shart ergash gapli qo'shma gapdir.

让步关系 xitoy tilidagi bu qo'shma gap turi o'zbek tilidagi to'siqsiz ergash gapga mos keladi . Quyida biz misollar orqali tahlil qilamiz:

Bu qo'shma gap turi quyidagi bog'lovchilar yordami bilan bosh va ergash gapni bog'laydi.

❖ 就是。 , 也。 -sa ham , baribir

❖ 即使/哪怕。 . . . , 也。 -sa ham , baribir

你**就是**说错了 , **也**没有人笑你。

Sen xato gapirsang ham , hech kim seni masxara qilmaydi.

哪怕/即使你不愿意也得去 , 这是工作。

Sen xohlamasang ham, baribir borishing kerak.

我就知道这个情况 , 也不会改变自己的看法。

Men bu holatni bilsam ham , baribir o'zinning fikrimni o'zgartirmayman.

取舍关系 (qiyoslash munosabatidagi ergashgan qo'shma gaplar) bu xitoy tilidagi ergashgan qo'shma gap turi 宁可..... , 也..... bog'lovchilari bilan bog'langanda o'zbek tilidagi to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga to'g'ri keladi. Misol:

他宁可少休息一会儿，也要跟儿子说说话。

U ozroq dam olsa ham, baribir o'g'li bilan suhbatlashishi kerak.

我宁可明天再来一趟，也不愿再等了。

Men ertaga yana kelsam ham, yana kutib tura olmayman.

O'zbek tilidagi aniqlovchi, ega, kesim, ravish, to'ldiruvchi qo'shma gaplar xitoy tilidagi bog'lovchisiz qo'shma gaplarga to'g'ri keladi.

Mazkur bob bo'yicha xulosa:

Biz ikkinchi bobda o'zbek va xitoy tilidagi qo'shma gaplarni tahlil qildik. Bu tahlil jarayonida biz shunga amin bo'ldiki, o'zbek va xitoy tilining o'xshash va farqli tomonlari mavjud. O'xshash tomonlarini gapiradigan bo'lsak xitoy tilidagi yetti xil qoshma gap turlari mavjud bo'lib, shulardan 5 ta qo'shma gap turi o'zbek tilidagi ergashgan qo'shma gapga mos keldi. Yana qolgan ikkita esa to'siqsiz vas hart ergash gapnin g tarkibiga kirib ketadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet tili o'rganish jarayonida o'rganilyotgan tilning grammatikasi, leksikasi, og'zaki nutqini, fonetikasi hamda bog'lovchilar, ko'makchilar, suffikslar, gap tuzilish qoidalari va boshqa jihatlariga e'tibor berib o'tish ahamiyatlidir.

Murakkab fikrni ifoda etuvchi qo'shma gaplar har bir tilda juda muhim o'rin egalaydi. Shu jumladan xitoy va o'zbek tili ham bundan mustasno emas. Xitoy tilida qo'shma gaplarning ko'pgina tillarda mavjud bo'lgan uchta turi mavjud bo'lib, bular: 并列复句 bīnglièfùjù (bog'langan qo'shma gaplar) , 偏正复句 piānzhèngfùjù (ergashgan qo'shma gaplar) , 无连接词复句 wúliánjiēcífùjù (bog'lovchisiz qo'shma gaplar). Bu gaplar turlari o'z navbatida o'z doirasida kichik turlarga bo'linada. Bo'g'langan qo'shma gapning xitoy tilida to'rtta turi mavjud bo'lib, bular:

- 联合关系 liánhéguānxì birlashtiruvchi (umumlashtiruvchi) munosabatdagi teng bog'lovchilar
- 承接关系 chéngjiēguānxì davomiy munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplar

- 递进关系 *dìjìnguānxì* progressiv munosabatdagi teng bog'langan qo'shma gaplar
- 选择关系 *xuǎnzéguānxì* tanlov munosabatdagi bog'langan qo'shma gaplar

Ergashgan qo'shma gaplarning esa yettita turi mavjud bo'lib, bular:

- 因果关系 *yīnguǒguānxì* sabab munosabatdagi ergash gapli qo'shma gaplar
- 条件关系 *tiáojiànguānxì* shart-sharoit munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- 目的关系 *mùdìguānxì* maqsad munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- 取舍关系 *qǔshěguānxì* qiyoslash munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- 假设关系 *jiǎ shè guān xi* shart munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar
- 让步关系 *ràngbù guānxi* rozilikni bildiruvchi munosabatdagi ergashgan qo'shma gaplar.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning esa uchta turi mavjud, bular;

- To'siqsizlik munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar
- Payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar
- Shart munosabatini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Biz shuningdek o'zbek va xitoy tilidagi qo'shma gaplarning o'xshash va tafovutlarini ko'rib chiqdik. O'zbek tilida 12 ergashgan qo'shma gaplarning turlari mavjud. Xitoy tilida esa 7 ta qo'shma gap turlari mavjud

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbek tilidagi adabiyotlar

1. Абдурахмонов Г'. Ўзбек тили грамматикаси.-Т: “Ўқутувчи”.1996.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.-Т: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti.2008.
3. Asqarov.M. O'zbek tili praktikumi.-Т: IQTISOD-MOLIYA.2006.y.

Xitoy tilidagi adabiyotlar

4. 李德律.外国人实用汉语语法.北京语言大学出版社.第 2008 年
5. 游舒.发展汉语.北京语言大学出版社.第 2012 年
6. 付玉萍.Hsk 语法讲练.北京语言大学出版社.第 2008 年

7. 李晓琪。博雅汉语。北京大学出版社。第 2005 年。
8. 吕叔湘。现代汉语八百词。北京。第 2012 年

Rus tilidagi adabiyotlar

9. В.И.Горелов. Грамматика китайского языка. М., “Просвещение”, 1974.у.

Lug`atlar:

- 10.Словарь иностранных слов.-Москва:Русский язык.1980
- 11.Ўзбек тилининг изоҳли лугати. –Москва “ Рус тили” нашриёти.1981.
- 12.Большой русско- китайский словарь. Пекин: Шанву инштуган.1993.- 1890.
- 13.现代汉语词典.-上海.,1997 年.
- 14.夏征农.辞海 (中) .-上海 : 上海辞书出版社 , 1999 年.
- 15.现代汉语词典.-北京.,2012 年.
- 16.上海词典.-北京.,2008.年.
- 17.Большой русско-китайский словарь. Пекин: Шанву инштуган. 1993. - 1100.с.
- 18.Китайской – русский словарь. Сост. Фу Чонг. –Шанхай, 2004.-1250. с
- 19.Русско-узбекский словарь. -М: Государственное издательство иностранных и национальных словаре. 1954.-840.с
- 20.Русско-узбекский словарь. –Т.: “Ўқитувчи”. 1972.-456. с
- 21.Словарь иностранных языков. –М.: Русский язык. 1979.- 543. с
- 22.О`zbek tili izohli lug`ati. 1 tom. -М: Rus tili. 1981.-1200. b.
- 23.О`zbek tili izohli lug`ati. 2 tom. -М: Rus tili. 1981. -1321.b
- 24.俄汉词典.上海:“商务印书馆”, 1992 年.- 1500. 页.
25. 俄汉大辞典.北京:“商务印书馆”, 1999 年.-1300. 页.

26. 常用修语 词典.上海:“辞典出版社”, 1986 年.-1240. 页.
27. 实用汉字词典. 北京. , 1989 年. -1543. 页.
- 28.现代汉语词典.北京:“商务印书馆”, 2002 年.-1500. 页.
- 29.俄汉大 词典.北京:“商务印书馆”, 2001 年-1343. 页.
- 30.汉俄词典. 北京.,2006 年.-1200. 页.

Internet saytlar

1. www.philology.ru
2. www.wikipedia.com
3. www.bkrs.info
4. www.chinagrammar.cn
5. <http://wk.baidu.com>